

85

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

G.Sh. Rixsiyeva

2020 yil "28" 08

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

2020 yil "28" 08

Ro'yxatga olindi: № MD-5A120304

2020 yil "28" 08

MUTAXASSISLIKKA OID MAXSUS ADABIYOT TAHLILI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120304– Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha)

10

10

Fan/modul kodi 5ATSAT126		O'quv yili 2020-2021	Semestr 1-2-3	ECTS – Kreditlar 2-2-2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2-2-2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili		90	90	90
2.	I. Fanning mazmuni				
Fanni o'qitishdan maqsad. Respublikamizda tarix fanining xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotidagi, qolaversa, o'sib kelayotgan yosh avlod shu'urida milliy o'zlikni anglash tushunchasi mohiyatini qaror toptirish, o'tmish ibratlaridan kelajak uchun manfaat topa bilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu holat Prezidenimiz farmon, qaror, shunga muvofiq hukumat qarorlarida o'z aksini topmoqda. Tarix fani yo'nalish va tarmoqlarida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun bu muhim hujjatlar puxta metodologik zamin yaratmoqda. Ushbu holat Sharqshunoslik universiteti ta'lim tizimining sharq tillarini o'rganish xususiyatidan kelib chiquvchi muhim vazifalarni ham o'rta qo'yadi. Shulardan biri magistrantlarda bakalavriat ta'lim va magistratura mutaxassisligi bazasida o'rganilayotgan tildagi ilmiy adabiyotni o'qish va talqin qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va zarur malakani shakllantirishdir. Fanning vazifasi. Ushbu "Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlil" nomli o'quv fani mazkur masalaning muhim bo'g'inlaridan biridir. O'quv rejasidagi manbalarni o'qish va talqin qilish yo'nalishidagi fanlardan farqi bu fanning nafaqat arab, fors va boshqa sharq tillardagi Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlangan manbalar ustida, balki ularda aks etgan tarixiy jarayonlar muayyan jihatlarining zamonaviy (asosan sovet va mustaqillik davri) talqinini tadqiq va tahlil etishga qaratilgandir.					
II. Asosiy nazariy qism(ma'ruza mashg'ulotlari)					
Fan doirasida ma'ruza mashg'ulotlari rejalashtirilmagan					

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-Mavzu: Kirish. "Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

O'rganilayotgan tildagi "Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili" fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Mazkur o'quv fanining davriy chegarasi, tanlangan mavzularning ahamiyati, har bir tarixiy davrda kechgan voqealarning o'sh davr asosiy yozma manbalarda aks etishi hamda talqini haqida qisqacha tushuncha beriladi.

2-Mavzu: Islomgacha bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari tarixining yozma manbalarda aks etishi.

Islomgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda kechgan tarixiy shart-sharoit va bu davr tarixining o'rganilayotgan sharq tilida yaratilgan qo'lyozma asarlarda yoritilishi tahlil etiladi. Xususan, Asoma Ahmad Turkmoniyning "Tarix ul-Atrok va al-Turkmon ma qabla al-Islam va ba'dahu" asari, uning tarkibiy tuzilishi va mintqa tarixini o'rganishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, bu davrni yorituvchi boshqa yozma manbalardan parchalar olinib, ular talabalarning bevosita ishtirokida amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tahlil etiladi.

3-Mavzu: Markaziy Osiyoga arablarning yurishlariga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili.

Mintaqaning VII-VIII asrlarga oid siyosiy tarixining o'rganilayotgan sharq tilida bitilgan manbalardagi tahlili. Mavzu yuzasidan mavjud qadimiy va zamonaviy asarlar obzori. Mahmud Shit Xattobning "Qadat ul-Fathi al-Islomi fi Biladi Movarounnahr" asarining mazmuni, unda bu davr harbiy harakatlarining talqini.

4-Mavzu: Markaziy Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi va keyingi bir asrlik tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar.

Mavzu doirasida o'sha davrda yaratilgan qo'lyozma asarlar va tarixiy hujjatlarga e'tibor qaratiladi. Jumladan, Shihobiddin Nasa'iyning "Siyrat al-sulton Jaloliddin Minkburn" asarining yaratilish tarixi, asar muallifining biografiyasi hamda ilmiy

	3. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбаларда. Тошкент: -1991. Qo'shimcha adabiyotlar 4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. 5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b. 6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b. Internet saytlari 8. http:// www.persianbook.org 9. http:// www.persian-language.org 10. http:// www.irandoc.ac.ir
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv- uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil “<u>23 08</u>” dagi <u>4</u>. -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil “<u>23</u>” <u>08</u>” dagi <u>452</u> - sonly buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oily ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: Xudayberganov R.T. - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrası, PhD. Yakubov Q.K. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrası, PhD.
9.	Taqrizchilar: Fayziyev X.T. – Oz'R FA Temuriylar tarixi muzeyi direktori, t.f.n. Lutfullayev H.M. – O'zR FA Sharqshunoslik instituti Tarixiy manbashunoslik bo'lim mudiri, t.f.n.

	merosi, Xorazmshohlar davlati tarixining mazkur manbada aks etishi, sulola so'nggi vakilining mo'g'ullarga qarshi kurash tafsilotlari, Xorazmshohlar davlatining qo'shni musulmon mamlakatlari bilan aloqalari. Bu davrda Buxoro tarixi, xususan uning ijtimoiy-iqtisodiy tarixining vaqf hujjatlarida aks etishi. Vaqf hujjatining ichki va tashqi manbashunoslik tahlili. Voqif shaxsi – Abdurahim ibn Muhammad va vaqf etilgan mulk turlari. Vaqf hujjatlarining o'rganilayotgan davr ijtimoiy-iqtisodiy tarixini yoritishdagi ahamiyati. 5-Mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari tarixiy manba sifatida. Asarning yozilish tarixi, sabablari va bugungi kundagi nusxalari. “Zafarnoma” asarining o'rganilish tarixi, asar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tavsifi. Mariya Eva Subtelning “Timurids in Transition (Temuriylar o'tish davrida)” nomli tadqiqotining ahamiyati. Mazkur tadqiqotda ko'tarilgan masalalar va ularning tahlil hamda talqini. “Timurids in Transition (Temuriylar o'tish davrida)” asarining manbaviy asoslari. Ofoq Begim vaqfnomasi va uning qisqacha tavsifi. 6-Mavzu: XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyo xonliklar tarixi yozma manbalarda Ashtarxoniylar sulolasi tarixiga oid asarlar va ular tasnifi. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda mazkur davr tarixiga oid konsepsiyalar. Tomas Velsfordning “Four types of Loyalty in Early Modern Central Asia (Ilk yangi davrda O'rta Osiyoda sodiqlikning to'rt turi)” asarida foydalanilgan qo'lyozma asarlar. “Sodiqlik” tushunchasi va turlari. Anke fon Kyugelgenning “Легитимация Среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) (Mahalliy tarixchilar asarlarida O'rta Osiyo Mang'itlar sulolasi legitimatsiyasi (XVIII-XIX asrlar))” asarining manbaviy asoslari. Legitimatsiya tushunchasi va uning nazariya sifatidagi talqini. 7-Mavzu: Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va o'lkada mustamlakachilik siyosatining qaror topishi. Mahalliy manbalarda o'lkani bosib olish jarayonining yoritilishi. Mahalliy mulflarning mazkur masaladagi qarashlari. Mintaqada bitilgan qo'lyozma asarlardagi
--	---

an'anaviy tarixshunoslik uslubidagi o'zgarishlar va ular sabablari. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar ilmiy izlanisharida mazkur davr yozma manbalari - qo'lyozma asarlar, tarixiy hujjatlar va arxiv hujjatlaridan foydalanish hamda turli nazariyalarni ilgari surishda ular talqini. Paolo Sartorining "Visions of Justice (Adolat haqidagi qarashlar)" asarida ko'tarilgan turli postkolonial nazariyalar va ularning mazmuni.

8-Mavzu: O'zbekistonning mustaqillik yilari tadqiqotlari tahlili.

Qo'lyozma asarlar bo'yicha amalga oshirilgan manbashunoslik tadqiqotlari va ularning mintaqaviy tavsifi. Tarixiy hujjatshunoslik sohasida qo'llanilayotgan yangi metodlar va ularning O'rta Osiyo tarixni tadqiq etishdagi ahamiyati. Tarixiy hujjatlarning qisqacha bayoni keltirilgan kataloglar manbashunoslik fanining yangi yo'nalishi sifatida.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Markaziy Osiyoning qadimgi davrdan VIII asrlargacha bo'lgan davri tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili.
3. IX-XII asrlarga oid tarixiy tadqiqotlarda Markaziy Osiyo tarixiga oid munosabatlar.
4. Sharq tilidagi Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlar tahlili (XIII-XIV asrlar).
5. Amir Temur va Temuriylar davriga oid tadqiqotlar tahlili.

6. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davriga oid tadqiqotlar mintaq tarixiga munosabat.

7. O'rta Osiyo xonliklari sharq tilidagi tadqiqotchilar nigohida.

8. Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi va sho'rolar davri tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili.

9. Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning xorijlik olimlar tadqiqotlarida yoritilishi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:

- Zamonaviy tadqiqot usullari, Markaziy Osiyo tarixiga oid asosiy sharq tilidagi tadqiqotlar, ularda mavzuga oid yondashuvlar, tahlil usullari va xulosalar bilan tanishish, tahlil etish va mustaqil fikr yuritish olish bo'yicha *tasavvur, bilim, ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi kerak.*

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Ma'ruzalar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6. Asosiy adabiyotlar

1. Исҳоқов М.М., Х.Т.Файзиев. Марказий Осиё халқлари тарихи тарихшунослиги ва манбашунослиги. ТДШИ, 2017. –296 б.
2. Мадраимов А., Фузаилова Г. Ўзбекистон тарихи манбалари. Тошкент: - 2016.